Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/17

Nozima IBRAGIMOVA[a]

[a] *Associate Professor*
Tashkent Islamic Institute named after Imam Bukhari
47, 18th Dead-end Street, Zarqaynar, Tashkent, 100002, Uzbekistan
E-mail: nozii_83@rambler.ru

ABBOSIYLAR DAVRI ELCHILIK MUNOSABATLARINING KONSEPTUAL QOIDALARI

Annotatsiya. *Umaviylar davrida davlat boshqaruvi tizimida shakllangan uchta muhim devon – «devoni insho», «devoni rasoil» va «devoni barid» – Abbosiylar davriga kelib yanada takomillashtirildi. Mazkur devonlar davlatning ichki va tashqi boshqaruv tizimida muhim o'rin tutib, ayniqsa, xalqaro diplomatik munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qildi. Natijada rasmiy yozishmalarni yuritish muayyan qoida va me'yorlar asosida tashkil etildi, diplomatik maktub va murojaatlarni tayyorlash san'at darajasiga ko'tarildi. Shuningdek, elchilarning davlatlararo munosabatlardagi o'rni va maqomi oshirilib, ularning bilim, tajriba va shaxsiy fazilatlariga alohida e'tibor qaratila boshlandi.*

Abbosiylar davrida diplomatik munosabatlarni tizimli tashkil etish maqsadida maxsus lavozim va vazifalar joriy qilinib, jumladan, «shayx ul-amid» kabi mansablar shakllandi. Bu tashqi aloqalarni muvofiqlashtirish, elchilik missiyalarini samarali tashkil etish hamda davlat manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilishga xizmat qildi. Umuman olganda, devonlar tizimining takomillashuvi musulmon Sharqida diplomatiya institutining rivojlanishiga muhim turtki berib, rasmiy yozishmalar madaniyati, elchilik an'analari va diplomatik munosabatlarning muayyan tartib-qoidalari shakllanishiga zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: *Abbosiylar, elchilik munosabatlar, konseptual qoidalar, devonlar, poytaxt, Movarounnahr, vakolatli shaxs, voliylar, iqtisodiy diplomatiya, siyosiy diplomatiya.*

CONCEPTUAL RULES OF AMBASSADORIAL RELATIONS OF THE ABBASIDS

Abstract. *During the Umayyad era, three important departments (diwans) formed within the state administration system – Diwan al-Insha, Diwan al-Rasa'il, and Diwan al-Barid – which were further refined under the Abbasid Caliphate. These departments played a crucial role in internal and external governance, contributing significantly to the development of international diplomatic relations. Consequently, official correspondence was conducted according to established rules and standards, and drafting diplomatic letters and appeals was elevated to an art form. Furthermore, the role and status of ambassadors in inter-state relations were enhanced, with special emphasis placed on their knowledge, experience, and personal qualities.*

To systematically organize diplomatic relations during the Abbasid period, special positions and duties were introduced, including titles such as Shaykh al-Amid. This served to coordinate foreign relations, effectively organize embassy missions, and protect state interests in the international arena. Overall, the refinement of the diwan system provided a powerful impetus to the development of the institution of diplomacy in the Muslim East, laying the foundation for an official correspondence culture, embassy traditions, and established rules of diplomatic relations.

Keywords: *Abbasids, diplomatic relations, conceptual principles, diwans, capital, Mawarannahr, authorized representative, governors (wulāt), economic diplomacy, political diplomacy.*

VIII asr o‘rtalariga kelib Yaqin Sharq hududida siyosiy vaziyat o‘zgardi. Umaviylar o‘rniga abbosiylar hokimiyat tepasiga keldi va poytaxt Damashqdan Bag‘dodga ko‘chirildi. Mazkur maqolada Movarounnahrning Bag‘dod bilan olib borgan aloqalariga urg‘u berilgan. VIII asr o‘rtalari XII asrgacha Movarounnahrning xalifalik bilan elchilik munosabatlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xalifalik hududining kengayishi, ichki ziddiyatlarning kuchayishi markazlashgan hokimiyatning zaiflashishiga sabab bo‘ldi. Natijada Movarounnahr hududida Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Xorazmshohlar davlati vujudga keldi.

749-yilda umaviylarning oxirgi xalifasi Marvon II taxtdan ag‘darilib, umaviylar sulolasiga barham berildi. Muhammad (s.a.v.)ning amakilari Abbos avlodlaridan Abul Abbos Saffoh (749-754)[1] taxtga kelib, Abbosiylar sulolasiga asos solindi. Damashqda umaviylarning tarafdorlari ko‘pligi sababli poytaxt Bag‘dodga ko‘chirildi[2]. K.E.Bosvortning «Musulmanskiye dinastii» asarida abbosiylar poytaxtni Damashqdan Bag‘dodga ko‘chirganini ma’lum qilgan. Asarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan O.Sharafuddinov esa uni Damashqdan emas, balki Kufadan ko‘chirilgan deb keltiradi[3]. Mazkur davrga oid manbalarda ham poytaxt Damashqdan ko‘chirilganligi ta’kidlangan. Ayrim tadqiqotchilar mazkur sulola hukmronligini ikki bosqichga bo‘ladi:

Birinchi bosqich, 750–862-yillarni o‘z ichiga olib, o‘n nafar xalifa boshqaruvi davriga to‘g‘ri keladi. Bu yillar xalifalikning nisbatan kuchli, sermahsul va rivojlangan davri edi.

Ikkinchi bosqich, 862–1258-yillarni qamrab olib, xalifalikning zaiflashgan davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yigirma yetti nafar xalifa hukmronlik qilgan[4].

Abbosiylar davrida mamlakat ma’muriy-boshqaruv jihatdan markazlashgan holda viloyatlarga bo‘lingan. Aksariyat tadqiqotchilar Movarounnahr atamasini arablarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi bilan bog‘laydi. Lekin ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu atama payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) davridan boshlab qo‘llanilgan[5]. Movarounnahrdan Buyuk Ipak yo‘lining ko‘plab tarmoqlari o‘tgani sababli bu hududda ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy topgan edi. Shu bois arab muarrixlari o‘z asarlarida Movarounnahr haqida ijobiy fikrlar bildiradi. Xususan, Bashariy nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Muqaddasiy: «Bu xalifalikning Alloh taolo yarlaqagan shaharlaridan bo‘lib, u yerdagilarning aksari juda yaxshi, faqih, ilmga rag‘batli, dinda mustahkam, islomi kuchli, mehmondo‘st, tafakkur ahllariga hurmatda bo‘lganlardir», deb ma’lumot beradi[6].

Abbosiylar davlat tepasiga xurosonlik Abu Muslimning yordami bilan kelgani ma’lum[7]. Movarounnahrga uyushtirilgan aksar elchilik safarlari Xuroson noiblari orqali amalga oshirilib, asosan abbosiylar siyosatini tashviqot qilish maqsadida bo‘lib, uning markazlari Ko‘fa va Xurosonda bo‘lgan[8]. Abbosiylar davriga kelib, geografik jihatdan Movarounnahr hududida joylashgan mahalliy davlatlarning barchasi musulmon diyoriga aylandi. Natijada islom dini qabul qilingan hududlar kabi Movarounnahr ham yagona musulmon ummati sifatida e’tirof etildi. Shu bois xalifalikka qarashli bo‘lgan hududlarga doir masalalar uning ichki munosabatlari sifatida tartibga solindi. Hududlar geografik joylashuvi bilan farqlangan[9]. Abbosiylarning dastlabki hukmronlik davrida hududlar markazlashtirilgan holda boshqarildi. Keyinchalik ayrim mustaqil davlatlar vujudga keldi. Jumladan, Movarounnahrda ham

[1] Saffoh – «xunrez» degan ma’noni anglatadi. Abbosiylar davriga kelib, xalifalarga unvon va laqab qo‘yish urfga aylangan. Saffoh ham Abul Abbosning unvoni bo‘lgan. Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy. Tarix al-xulafo. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1946. – B. 299; Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – J. 2. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – B. 79-83.

[2] Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. Yilnoma va shajaralar bo‘yicha ma’lumotnoma. Izohlar bilan tarjimasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 29.

[3] O‘sha manba. – B. 249.

[4] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – J. 2. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – B. 80.

[5] Yoqut Hamaviy «Movarounnahr»ni «Turon yurti» deb atagan. VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning boshlarida bu hududga nisbatan «Movarounnahr» yoki «Madunanahr» atamalari ishlatilgan. Geografik hudud VII asrgacha Turk hoqonligi, VII–X asrlarda Xuroson, XI asrlardan boshlab Turkiston, XII asr oxiri XIII asr boshida Xorazm tarkibiga kiritilgan. Qarang: Shamsiddin Kamoliddin. Movarounnahr // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. I jild. M. harfi. – Toshkent: O‘eME, 2000. – B. 659; [Elektron resurs]: uz.m.wikipedia.org.

[6] Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-Abbosiya (Tarix al-umam al-islomiya). – Bayrut: al-maktabat al-asriya, 2007. – B. 35; Muxetdinov D., Xayretdinov D. Istoriya arabskogo xalifata. – Nijniy Novgorod: Medina, 2011. – S. 65-72.

[7] Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-abbosiya (Tarix al-umam al-islomiya). –Bayrut: Al-maktaba al-asriya, 2007. – B. 25; Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – J. 2. – B. 85

[8] O‘sha manba. – B.16.

[9] Juan Hmo. Al-Alaqot ad-davliya fi-l-islom (al-Asr ar-roshidiya va-l-asr al-abbosiya). [Elektron resurs]. Kirish tartibi: ara.yeki-ti-media.org. جوان حمو. العلاقات الدولية في الاسلام

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar kabi sulolalar hukmronlikka erishdi. Garchi bu sulolalar mustaqil bo‘lsa-da, xalifalik markazi Bag‘dod bilan muntazam elchilik munosabatlari o‘rnatdi. Bu aloqalar hukmron sulolalarning tashqi diplomatik masalalarini emas, balki ichki siyosiy muammolarni hal qilishga xizmat qildi. Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy masalalarga oid muammolar elchilar yordamida hal etishga harakat qilindi. Shu sababli bu davrdagi munosabatlarni elchilik tarixining muhim xususiyatlaridan biri deb aytish mumkin.

Abbosiy xalifalari davrida Movarounnahr hududida joylashgan musulmon davlatlari bilan olib borilgan elchilik munosabatlari o‘zining eng yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Chunki elchilik sohasi ancha tartibga solingan va tizimlashtirilgan edi. Xususan, elchilik tizimining asosiy atributlaridan biri bo‘lgan qabul marosimlariga oid qonun-qoidalar sistemali ishlab chiqilgan. Viloyat amirlari bevosita qabul marosimlarida ishtirok etgan va shaxsan o‘zi elchi sifatida ishtirok etgan. Ayrim viloyat amirlari[10] o‘z lavozimlaridan bo‘shaganlaridan so‘ng xalifa huzurida muayyan siyosiy vazifalarni bajargan. Ular vazir, hojib, kotib, xavfsizlik uchun javobgar va qozi bo‘lishlari mumkin edi. Mazkur lavozimlardan kotib xalifaning viloyat amirlari yoki boshqa davlat rahbarlariga maktublarini yozish va tahrirlash bilan shug‘ullangan. Ayrim holatlarda bu vazifa vazir zimmasiga ham yuklatilgan[11]. Ilk Abbosiy xalifalar davriga kelib davlatlararo aloqalar o‘rnatish vakolatini beruvchi «Shayx al-amid» («Ulug‘ shayx») yangi lavozim joriy etildi. Bu lavozimga ega bo‘lish uchun ma’lum shartlarga amal qilish lozim edi. Jumladan, Shayx al-amid abbosiylardan bo‘lmasligi, o‘z lavozimini ixtiyoriy tanlashi, elchilarni tartib bilan chiroyli tarzda kutib olish, davlatning siyosiy va idoraviy tadbirlarini amalga oshirishi shart bo‘lgan. Keyinchalik munosabatlarni kengaytirishga ehtiyoj tug‘ilgandan so‘ng lavozim vakolatlari devon darajasigacha ko‘tarilgan[12].

Devon al-amid xalifalikning turli davlatlar bilan tinch yoki harbiy aloqalarini tartibga solgan. Ushbu devonning vazifalari doirasiga elchilik delegatsiyalarini tayyorlash, uning tarkibiga kiruvchi shaxslarni umumiy elchilik talablariga ko‘ra tanlash, ularga topshiriq va missiyalarni yuklash kirgan. Shuningdek, xalifalikka tashrif buyurgan elchilar delegatsiyasini kutib olish, ularni tanishtirish, qabul marosimini tashkil etish, ziyofat uyushtirish, kunlik oziq-ovqat va turar joy bilan ta’minlash kabi masalalar devonning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan[13].

Xalifaning elchilariga alohida maosh to‘langan va ular maxsus liboslarda yurishgan. Elchilar dastlab tashrif buyurgan mamlakatning mas’ul shaxsi bilan uchrashgan keyin hukmdor huzuriga kiritilgan. Shundan so‘ngra muzokaralar olib borilgan. Bag‘doddan Movarounnahrga tashrif buyurgan elchilar odatda arablarda haybat, salobat va hurmat ma’nolarini bildiruvchi qora rangdagi chakmonlar kiyganlar. Shuningdek, ularda tantanali qabul marosimlari yoki maktub topshirish jarayonida gavharlar bilan bezatilgan qiniga solingan qilich ham bo‘lishi lozim edi[14].

Xalifalik poytaxtiga tashrif buyurgan elchilar marosimlar nizomiga muvofiq bayramona bezatilgan shaharga kirib kelgan. Elchilarni olib yurish uchun devon vakilidan tashqari ularga maxsus xizmat qiluvchi shaxs ham biriktirilgan. Dastavval elchilar uchun ziyofat uyushtirilgan. Bu ziyofatga vazir boshchilik qilib, xalifaning qabul kuni to‘g‘risida ma’lumot bergan. Keyingi bosqichda xalifaga o‘zi tayinlagan voliyning maktubi, so‘ngra olib kelingan hadyalar topshirilgan[15]. Bunday elchilik munosabatlarida xalifa va uning noiblari, shuningdek, ayrim hukmdorlar o‘rtasidagi kelishuv (bay’at) muhim o‘rin tutgan. Shu o‘rinda Muhammad (s.a.v.) davridan boshlangan va diniy ahamiyatga ega bo‘lgan bay’at xalifaliklar davriga kelib, siyosiy tus olganligini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, bu holat xalqaro aloqalar jarayonlarida ko‘zga

[10] Bu yerda xalifaning o‘rinbosari sifatida viloyatlarga tayinlangan (voliy) shaxslar nazarda tutilgan.

[11] Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-abbosiya (Tarix al-umam al-islomiya). – B. 63-65.

[12] O‘sha manba.

[13] Shayx Said Muhammad Abdulloh Toho Nizal. Al-Alaqot al-diplumasiya fi ahd ad-davla al-islomiya al-abbosiya. [Elektron resurs]. Kirish tartibi: الشيخ الدكتور سعيد... العلاقات الدبلوماسية/ امد/مقالات محمد عبد الله طه نزال. العلاقات الدبلوماسية في عهد عهد الدولة الاسلامية العباسية

[14] Mamadaliyev H.M. IX–XII asrlarda elchilik xazmatini tashkil etishga doir ayrim ma’lumotlar // O‘zbekiston da elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Mas’ul muxarrir: Otaxo‘jayev A.M., Hidirova N.O. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – B. 92; Shayx Said Muhammad Abdulloh Toho Nizal. Al-Alaqot al-diplumasiya fi ahd ad-davla al-islomiya al-abbosiya. [Elektron resurs]. Kirish tartibi:الشيخ الدكتور سعيد... العلاقات الدبلوماسية/ امد/مقالات محمد عبد الله طه نزال. العلاقات الدبلوماسية في عهد عهد الدولة الاسلامية العباسية

[15] Abul Lays Sanuhajiy. Alaqot al-xalifat al-abbosiy Horun ar-Rashid bi-l-Hind va bi-s-Sin. [Elektron resurs]. Kirish tartibi: majles.alukah.net; ابو الليث الصنهاجي. علاقة الخليفة العباسي هارون الرشيد بالهند و الصينShayx Said Muhammad Abdulloh Toho Nizal. Al-Alaqot al-diplumasiya fi ahd ad-davla al-islomiya al-abbosiya. [Elektron resurs]. Kirish tartibi: الشيخ الدكتور سعيد... العلاقات الدبلوماسية/ امد/مقالات محمد عبد الله طه نزال. العلاقات الدبلوماسية في عهد عهد الدولة الاسلامية العباسية

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

tashlanadi. Jumladan, Abbosiy xalifalarining har bir vakili ilk bor hokimiyat tepasiga kelganlarida siyosiy faoliyatlarini boshlamaslaridan avval barcha viloyat amirlariga, jumladan, Movarounnahrga shaxsan maktub yozdirib, o‘z ishonchli vakillarini jo‘natishgan. Maktub bay’at (siyosiy ishonch bildirish usuli) va unga sadoqat mazmunida bo‘lgan.

Xalifalarning Movarounnahrdagi voliylari nafaqat ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy, balki harbiy sohaga oid masalalarda ham elchilar yuborganlar. Xususan, abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida muhim rol o‘ynagan shaxslardan biri Abu Muslimga Shosh hukmdori maktub jo‘natib, Xitoy tomonidan bo‘lgan hujumlarga qarshi madad kuchlari so‘ragan. Natijada arab va mahalliy aholidan iborat qo‘shin 751-yilda Tolas (Taraz) vodiysida xitoyliklar bilan to‘qnashadi. Bu to‘qnashuvda xitoyliklar katta talafot ko‘rganlari sababli Movarounnahrga o‘z elchilarini yubordi[16]. Manbalarda bu elchilar qanday maqsad bilan tashrif buyurgani keltirilmasa-da, ularni asosan xitoylik asirlar masalasida jo‘natilgan deb taxmin qilish mumkin. Chunki Tabariy bu voqeani hijriy 133-yilda ro‘y berganini ta’kidlab, bu yurishga Abu Dovud Xolid ibn Ibrohim[17] boshchilik qilganini, yo‘l-yo‘lakay esa Xitoy bilan to‘qnashuvdan so‘ng olib ketilgan asirlar Xitoy hukmdoriga qaytarilganini aytib o‘tadi[18]. Ayrim tadqiqotchilar arablarning Xitoy bilan dastlabki aloqalari aynan ularning Chochga qilgan hujumidan so‘ng o‘rnatilgan deb ma’lumot beradilar[19].

Abbosiy xalifalar Saffoh (722–754), al-Mansur (714–775), al-Mahdiy (744–785), al-Hodiy (764–786) va Horun Rashid (763–809) davrida fitna va ichki nizolar avj olgan. Masalan, Xurosonda Muqanna, Jurjonda Muxammara, Sijiston va Hirotda Ustoz Sis, keyinchalik Samarqandda Rofye ibn Lays boshchiligida qo‘zg‘alonlar ko‘tarilgan. Shu sababdan bu davrda Movarounnahr bilan o‘rnatilgan aloqalar nafaqat diplomatik, balki harbiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan[20].

776-yil Buxoroda Hoshim ibn Hakim (Muqanna) «oq kiyimlilar qo‘zg‘oloni»ga rahbarlik qilgan. Qo‘zg‘olon dastlab mustaqillik uchun kurash tarzida boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik Muqanna tarafdorlarining safi kengayib, uning o‘zi payg‘ambarlik va hatto xudolikni da’vo qildi. Unga Husayn ibn Muoz, Buxoro qozisi Amir ibn Imron va ayrim mahalliy aholi qarshilik ko‘rsatib, Narshax yaqinida keskin to‘qnashuv bo‘lib o‘tdi[21]. To‘qnashuv jarayonida «Oq kiyimlilar» elchi jo‘natib, afv etishlarini so‘raydi. Elchilar murosali kelishuvga erishadi, lekin kelishuv shartlari «Oq kiyimlilar» tomonidan buziladi. Shu bois takroriy sulh tuzish yuzaga keladi[22].

Shunga o‘xshagan qo‘zg‘olonlardan yana biri Rofe’ ibn Lays[23] boshchiligida bo‘lib, u asosan xalifa Horun Rashidga qarshi edi. Xalifa qo‘zg‘olonni bostirish uchun Harsama ibn Ayyonni jo‘natadi. Maqsadga erisholmagach Ma’mun Horun Rashid bilan Xurosonga keldi va Asadga maktub jo‘natib, Rofe’ga qarshi kurashda yordam so‘ragan[24]. Asad va uning o‘g‘illarini sa’y-harakatlari bilan Rofe’ abbosiylar bilan sulh tuzadi. Narshaxiy o‘z asarida Asadning ushbu xizmatlari Somonxudodlar sulolasining siyosiy maydonga kelishiga asos bo‘ldi, deb ko‘rsatadi[25]. Lekin Xuzoriy Movarounnahrdagi Rofe’ ibn Lays qo‘zg‘oloniga xalifa Ali ibn Isoni Xuroson noibi etib tayinlanishi va mahalliy tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatbaho ashyolarni elchilar orqali Bag‘dodga jo‘natilishi sabab bo‘lganligini keltiradi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur qo‘zg‘olon xalifaning e’tiborsizligiga nisbatan boshlangani ham qayd etilgan[26].

Xalifa aka-uka Amin (809–813) va Ma’mun (813–817)lar davridagi elchilik munosabatlari ular orasidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan edi. O‘zbekiston tarixi yoritilgan aksar adabiyotlarda bayon qilinishicha, xalifa Ma’mun xurosonlik Tohir

[16] Ablat Xo‘jayev. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – B. 172.
[17] Abu Dovud Xolid ibn Ibrohim Zuhuliy arab harbiy qo‘mondoni bo‘lib, Xuroson viloyati amiri bo‘lgan. 757 yoki 758-yilda vafot etgan. Qarang: Ibn Asir. – J. 5. – B. 370-371.
[18] Istoriya at-Tabari /Per. s arab. V.I. Belyayeva s dopol. O.G. Bolshakova, A.B. Xalidova. – S. 260.
[19] Qarang: Vang Chjilay, Ding Maben. Chjung’ya guoji guanshi (Movarounnahr xalqaro munosabatlari). – Changsha, 1997. – B. 43; Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarix. Polniy svod istorii. – Toshkent: Uzbekistan, 2006. – B. 21.
[20] Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy. Tarix ul-xulafo. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1946. – B. 303.
[21] Muxetdinov D., Xayretdinov D. Istoriya arabskogo xalifata. – Nijniy Novgorod: Medina, 2011. – S. 85.
[22] Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. Tarixi Buxara. Istoriya Buxari. Perevod, kommentarii i primechaniya Sh.K.Kamoliddina. – Toshkent: SMI-ASIA, 2011. – C. 68.
[23] Rofe’ ibn Lays 806–810-yillarda Markaziy Osiyoda Abbosiylar hukumatiga qarshi o‘zining noroziligini bildirgan shaxs.
[24] Ibn Xaldun. Abra tarixi Ibn Xaldun. O‘MI fondida № D-341 (4889) raqami bilan saqlanayotgan toshbosma manba. – B. 228.
[25] Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. Tarixi Buxara. Istoriya Buxari. – S.73; Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-abbosiya (Tarix al-umam al-islomiya). – B. 155.
[26] Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-abbosiya (Tarix al-umam al-islomiya). – B. 93; Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – J. 2. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – B. 95.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ibn Husaynning[27] qo‘mondonligidagi zafarlari sababli taxtni qo‘lga kiritgan[28].

Xalifa Mu’tazz (866–869) Ubaydulloh ibn Tohirga atalgan yorliqni Xuroson noibligiga jo‘natgan. Bu davrda Movarounnahr va Yaqin Sharq (Ma’mun, Ibrohim ibn Mahdiy, Mu’tasim, Vosiq, Mutavakkil, Muntasir, Musta’in va Mu’tazz) o‘rtasida muntazam elchilik safarlari amalga oshirilgan[29].

Abbosiy xalifalarining boshqaruvi vaqt o‘tishi bilan tobora zaiflashib boradi. Bu haqda turli mulohazalar mavjud. Jumladan, Beruniy xalifalik zaiflashuvining sababini hukumatni himoya qilgan sulolalarning jasorati uchun «ad-davla» qo‘shimchasi qo‘shilgan kunyalarining haddan ziyod ommalashuvida deb biladi. Natijada Abbosiy xalifalarning siyosiy ta’siri sustlashib, «ra’s al-jolut», ya’ni mol-mulksiz va davlatsiz diniy raislikdan iborat hukumat shakllanib qoladi. O‘z fikrini Beruniy astrologlar iqtibosi bilan asoslaydi. Unda xalifani podshoh emas, balki islom dinining raisi sifatida qaralgan[30]. Mazkur vaziyat xalifalikning turli hududlaridagi mahalliy sulolalar hukmronligiga va kichik davlatlarning ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Mazkur davrda yagona siyosiy, diniy, madaniy mintaqa shakllangan. Unda uch xalq – arab, fors va turk xalqlari siyosiy konsensusga erishgan. Boshqaruvda har uchchala xalq vakillari qatnashgan. Xalifa – arab, vazir – fors, harbiy kuch esa turklar qo‘lida bo‘lgan. Aytish mumkinki, Abbosiy xalifalari davlat tepasiga kelishi aslida Xuroson va Movarounnahrlik harbiylar yordamida bo‘lgan.

Harbiy sohada erishilgan muvaffaqiyat natijasida Tohir ibn Husayn avvaliga Iroq hokimiyati va Bag‘dod harbiy garnizoni boshlig‘i, keyinchalik Xuroson noibi etib tayinlanadi[31]. Mana shu davrdan boshlab Bag‘dod xalifaligi tomonidan boshqariladigan hukmron sulolalar siyosiy maydonga chiqa boshladi. Movarounnahrda shakllangan hukmron sulolalar va ular boshqaruvidagi davlatlar yuqorida keltirilgan xalifalik boshqaruvining ikkinchi – zaiflashgan bosqichida vujudga keldi. Mazkur jarayonda Movarounnahrda Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar va G‘aznaviylar kabi mahalliy sulolalar hukmronlikka erishdilar. Bu xususda G.E.Gryunebaum Yaqin Sharq tarixi yangi bosqichga ko‘tarilganini ta’kidlaydi: «Darhaqiqat Abbosiylar davlati «Muluki tavoif» nomidagi mustaqil yoki yarim mustaqil davlatlarga bo‘linib ketgan edi. Bu davr Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining davlatchilik tarixining yangi bosqichga ko‘tarilish davri edi»[32].

Somoniylar, Qoraxoniylar va G‘aznaviylar sulolalari hukmronligi davrida o‘rnatilgan tashqi elchilik aloqalari xalifalik tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatida Abbosiy xalifalar faqat hurmat qilingan bo‘ysunilmagan. Natijasida mazkur munosabatlar erkin o‘rnatilgan. Tarixda elchini kutib olish marosimlarida xalifalarga nisbatan «Amir al-mu’minin» va «Mavlono» deb murojaat etib, ularga iltifot ko‘rsatilgani ko‘zga tashlanadi.

Movarounnahrda bir vaqtning o‘zida hukm surgan sulolalar o‘rtasida ham elchilik aloqalari o‘rnatilgan. G‘aznaviylar va Qoraxoniylar o‘rtasidagi elchilik safarlarida o‘zaro jo‘natilgan sovg‘alar ular orasidagi munosabatlar mustahkamligidan darak beradi.

Movarounnahrdan xalifalikka yoxud qo‘shni sulolalarga jo‘natilgan elchilar din peshvolari, qozilar, shayx va ulamolar, saroy ayonlari, kotiblar, vazirlar va hukmdor qarindoshlaridan viloyat amirlari bo‘lganini tadqiqot tahlili natijasida ko‘rish mumkin. Shuningdek, o‘zaro hadya almashish do‘stona munosabatlar belgisi hisoblangan. Tashrif buyurgan elchi o‘zi bilan maktub olib kelishi, mazkur maktubda jo‘natayotgan shaxsning ismi, lavozimi, mamlakati, jo‘natilayotgan shaxs (elchi) va maktub qaratilgan hokimning ismi shariflari kiritilishi shart

[27] Izoh: Tohir ibn Husayn forsiy mavlo, xalifa Ma’munning Sharqdagi kuchli qo‘mondonlaridan biri bo‘lgan. Sharqiy qism rahbari bo‘lganida rasmiy elchi sifatida kelib, xalifa huzuriga kirishga haddi sig‘may, Ahmad ibn Abu Xolid (uning do‘sti bo‘lib, Xuroson noibi G‘asson ibn Abbadning faoliyatidan kamchilik topib, uning o‘rniga do‘sti Tohirni noib etib tayinlanishiga erishgan) orqali Xuroson noibligiga (821–873) erishgani keltirilgan.

[28] Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarix. Polniy svod istorii. –T.: Uzbekistan, 2006. – S. 50; Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-abbosiya (Tarix al-umam al-islomiya). – B. 146; Muxetdinov D., Xayretdinov D. Istoriya arabskogo xalifata. – Nijniy Novgorod: Medina, 2011. – S.94, 95; Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy. Tarix ul-xulafo. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1946. – B. 345-355.

[29] Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy. Tarix ul-xulafo. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1946. – B. 415.

[30] Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // A.Rasulov tarj. Tanlangan asarlar.– Toshkent: Fan, 1968. – J. 1. – B. 52.

[31] Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarix. Polniy svod istorii. – Toshkent: Uzbekistan, 2006. – S. 58; O‘zbekiston harbiy san’ati tarixi: kitob-albom / J.X. Ismailova, L.G. Levteyeva; mas’ul muharrir: Y.R.Buryakov. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2013. – B. 95; Kamoliddin Sh.S. Zametki po drevney i srednevekovoy istorii Chacha. – Toshkent: TashGIV, 2009. – S. 30; Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – J. 2. – B. 97-181.

[32] Gryunebaum G.E. Osnovniye cherti arabo-musulmanskoy kulturi. – M.: 1981. – S. 180.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

bo‘lgan. Bu davrda maktublar diniy yoki siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan elchilar tomonidan arab tilida jo‘natilgan. Javoban bitilgan maktublar esa tarjimasi uchun elchi tushunadigan tilda yozilishi yoki ona tilida yozilgan bo‘lsa, elchi bilan tarjimon kelishi shart bo‘lgan. Maktublar bevosita imperator yoki davlat boshliqlariga jo‘natilayotgan bo‘lsa, jo‘natayotgan shaxsning to‘liq rasmiy ismi eng oliy navdagi varaqlarga yozilganini kuzatish mumkin[33].

Abbosiylar davlati tarixida elchilarning o‘z davlatlari yoki xalifalariga xoinlik holatlari ham kuzatilgan. Buni xalifaning Xurosondagi noibi Abu Muslim Xurosoniy siyosiy tajribasida ko‘rish mumkin. Uning elchisi tashrif buyugan mamlakati (xalifalikning Anzak davlati poytaxti al-Anbar)da xiyonat qilgan[34].

Hukmdor qabuliga kirgan elchi o‘zining xayrli niyatini uning qo‘lini o‘pishi bilan izhor qilsa, hukmdor bunga ruxsat berishi uning ham xayrixohligini bildirgan. Somoniylar davrida qo‘lni o‘pishga izn bermaslik munosabatlar tinchlikka asoslanmaganidan darak bergan.

Mamlakatga tashrif buyurgan delegatsiya a’zolarining har biriga muayyan vazifalar, ya’ni bevosita muzokaraga kirishish, maktubni o‘qib eshittirish, sovg‘alarni topshirish yuklatilgan. Masalan, Ibn Fadlan delegatsiyasida maktubni o‘qib eshittirish Nodir Xuramiyga yuklatilgan edi. G‘aznaviylarda esa mazkur vazifa elchi nozir (ularni olib yurishga mas’ul shaxs)larida bo‘lgan[35]. Sovg‘a yetkazuvchilar asosan maxsus g‘aznachilar, unga bo‘ysunuvchi xodimlar bo‘lgan. Ular elchilar bilan birgalikda xazinada ro‘yxatga olingan ashyolarni egalariga topshirgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, hadyalar ro‘yxati jo‘natilayotgan maktubda zikr etilgan. Hadyalar miqdori va sifati jo‘natilayotgan davlatning imkoniyati va milliy xususiyatidan kelib chiqqan bo‘lishi shart edi. Movarounnahrdan Bag‘dodga doimiy hadyalar oqimi yo‘lga qo‘yilgan edi. Masalan, Somoniylar xalifalikning qullar eksportini nazorat qilgan. X asrda Xurosonning o‘zi Bag‘dodga yiliga 12000 nafar qul yetkazib turgan[36].

Elchilarning muvaffaqiyati o‘zaro sulhga erishilganida bo‘lgan. Sulh odatda bir tomondan musulmonlar, ikkinchi tomondan boshqa din vakillari orasida tuzilgan. Shuningdek, xalifa va uning noiblari o‘rtasida ham imzolangan. Abbosiylar davrida xalifa huzuriga tashrif buyurgan elchilar boshqa din vakillari bo‘lsa, musulmonlar omonligidan foydalanganlar. Bu davrda omonlikning ikki turi mavjud bo‘lib, ular doimiy va vaqtinchalik omonlikdir. Doimiy omonlik ahli kitoblar va musulmon bo‘lmaganlarga yashash uchun beriladi. Uni imom yoki xalifa noibi bergan. Vaqtinchalik omonlik aksar hollarda harbiy vaziyatda raqib tomondan kelgan elchilarga berilgan[37].

Abbosiylar davrida Movarounnahr bilan tijorat masalasida elchilik munosabatlari ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Buyuk Ipak yo‘li orqali shakllangan savdo keyinchalik iqtisodiy-madaniy munosabatlar rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan. Abbosiylar Bolgariya, Hind o‘lkasi va Xitoy bilan diplomatik munosabatlarni o‘rnatish jarayonida Movarounnahr asosiy tayanch hudud vazifasini bajargan.

Siyosiy va iqtisodiy diplomatiya bilan bir qatorda madaniy diplomatiya ham bu ikki mamlakat o‘rtasida mustahkam o‘rnatilgan. Xorazmda xalifa Ma’mun tomonidan ta’sis etilgan akademiya Movarounnahr mutafakkirlarini bir joyga to‘plagan. Ulamolarning xalifa bilan hamkorlikdagi faoliyati dunyo tamadduniga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgani hech kimga sir emas. Tarixda Xorazm ulamolari xalifa vakili sifatida boshqa mamlakatlarga elchi sifatida tashrif buyurgan. Xalifaning tabibi Fransiya qiroli Sharlga yuborilgani haqidagi ma’lumotlar buni tasdiqlaydi[38].

Harbiy salohiyat va obro‘-e’tiborini yo‘qotgan xalifalik o‘z hukumatini siyosiy jihatdan Movarounnahrdagi hukmron sulolalardan foydalangan holda kuchaytirgan. Xalifalarning o‘zlari esa diniy rahnamo maqomini saqlab qolganlarini ko‘rish mumkin.

---

[33] Juan Hmo. Al-Alaqot ad-davliya fi-l-islom (al-asr ar-roshidiya va-l-asr al-abbosiya). [Elektron resurs]. Kirish tartibi: ara.yekiti-media.org. العلاقات الدولية في الاسلام جوان حمو

[34] Juan Hmo. Al-Alaqot ad-davliya fi-l-islom (al-asr ar-roshidiya va-l-asr al-abbosiya). [Elektron resurs]. Kirish tartibi: ara.yekiti-media.org. العلاقات الدولية في الاسلام جوان حمو

[35] Mamadaliyev H.M. IX-XII asrlarda elchilik xazmatini tashkil etishga doir ayrim ma’lumotlar // O‘zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Mas’ul muxarrir: Otaxo‘jayev A.M., Hidirova N.O. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – B. 92.

[36] Mamadaliyev H.M. IX-XII asrlarda elchilik xazmatini tashkil etishga doir ayrim ma’lumotlar // O‘zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Mas’ul muxarrir: Otaxo‘jayev A.M., Hidirova N.O. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – B. 92.

[37] Juan Hmo. Al-alaqot ad-davliya fi-l-islom (al-asr ar-roshidiya va-l-asr al-abbosiya). [Elektron resurs]. Kirish tartibi: ara.yekiti-media.org. العلاقات الدولية في الاسلام جوان حمو.

[38] Shayx Said Muhammad Abdulloh Toho Nizal. Al-alaqot al-diplumasiya fi ahd ad-davla al-islomiya al-abbosiya. [Elektron resurs]. Kirish tartibi: العلاقات الدبلوماسية/مقالات/امد...

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Islom ulamolaridan shayx Abdulhasan Nadaviy Abbosiylarning bu tarzdagi ta'sirining yo'qolishiga quyidagi sabablarni keltiradi:

eng namunali shaxslarni hukumat rahbarligiga saylashdan voz kechilib, nasliy asosda shakllangani;

muxolifatning kuchayishi;

davlat mulkidan unumli foydalanmaslik;

nazoratning susayishi;

botil aqidaviy mazhablarning ko'payishi;

xalifalikning birinchi bosqichidagi ilm-fanning ikkinchi davrga borib susayishi;

hududlarda hukmron sulolalar ta'sirining kuchayishi va kichik davlatlar sifatida shakllanishi[39].

Abbosiylar davriga kelib, elchilik munosabatlari tartibi tizimlashgan. Vazifalar taqsimlanish tamoyiliga amal qilgan holda davlat darajasida bu masalaga jiddiy yondashilgan. Muayyan nizom ishlab chiqilgan va uning ijrosi qattiq nazorat qilinganini ko'rish mumkin.

Xoh xalifa elchisi, xoh boshqa davlat vakili bo'lsin, ularga nisbatan yuqori ehtirom, diplomatik etiket va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lingan. Har bir harakat, qarash, mimika, pantomimika, nutq va kiyinish odobi e'tibordan chetda qolmagan. Elchiga o'zi yuborilgan mamlakatning vakili va siymosi sifatida yuksak ehtirom ko'rsatilgan. Shu bilan elchining davlatiga nisbatan hurmat ko'rsatilgan.

Bu davrga kelib, Movarounnahr va Yaqin Sharq o'rtasidagi elchilik munosabatlari rivoj topib, siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ilmiy sohalarda hamkorliklar amalga oshirildi. Elchilik xalifalikning Osiyo bilan munosabatlaridagi muhim idora usuliga aylandi. Shuningdek, turli sohalardagi muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga erishildi. Abbosiylar davlati buyuk imperiya shaklidagi hukumat bo'lsa-da, siyosiy jihatdan ancha zaiflashgan edi. Abbosiy xalifalar Movarounnahrga ixtiyoriy murojaat etib, xalifalik idorasi, harbiy salohiyati va boshqaruvni mustahkamlash tashabbusi bilan chiqqanlar. Bu jarayon o'zaro elchilik munosabatlari orqali tartibga solingan.

Movarounnahr bilan yozma va og'zaki munosabatlar arab tilida yuritildi. Xalifalikning Yevropa davlatlari bilan aloqalari esa lotin tilida olib borilganini ko'rish mumkin. Tarixning bu davrida elchilik munosabatlari ancha taraqqiy topib, munosabatlarda insonparvarlik, ijtimoiy tenglik, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi umume'tirof etilgan tamoyillar ustuvorligi sezila boshladi. O'zaro elchilik munosabatlari diplomatik etiket asosida amalga oshirildi.

Munosabat ishtirokchilari musulmonlardan iborat bo'lsa, islom dini qoidalariga qat'iy amal qilingan. Ular boshqa din vakillari bo'lsalar, qabul marosimlariga rasmiy, bayramona va davr talabidan kelib chiqqan holda diplomatik tus berilgan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-abbjsiya (Tarix al-umam al-islomiya). – Bayrut: al-Maktaba al-asriya, 2007. – 430 b.
2. Shaykh Muhammad al-Khadari Bek. Ad-Davla al-abbosiya. –Bayrut: al-Maktaba al-asriya, 2007.
3. Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. Yilnoma va shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma. Izohlar bilan tarjimasi. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy. Tarix ul-xulafo. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1946.
5. Jalal ad-Din Abd ar-Rahman as-Suyuti. Tarikh al-khulafa. – al-Qohira: Dor al-fikr al-arabiya, 1946.
6. Ibn Asir. Al-kamil fi-t-tarix. – Bayrut: Dor al-fikr, 1978.
7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – J. 1. – 512 b.
8. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – J. 2. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – 544 b.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Xuzariy. Ad-Davla al-abbjsiya (Tarix al-umam al-islomiya). – Bayrut: al-Maktaba al-asriya, 2007. – 430 b.
2. Shaykh Muhammad al-Khadari Bek. Ad-Davla al-abbosiya. –Bayrut: al-Maktaba al-asriya, 2007.
3. Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. Yilnoma va shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma. Izohlar bilan tarjimasi. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Jaloliddin Abdurrahmon Suyutiy. Tarix ul-xulafo. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1946.
5. Jalal ad-Din Abd ar-Rahman as-Suyuti. Tarikh al-khulafa. – al-Qohira: Dor al-fikr al-arabiya, 1946.
6. Ibn Asir. Al-kamil fi-t-tarix. – Bayrut: Dor al-fikr, 1978.
7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – J. 1. – 512 b.
8. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – J. 2. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – 544 b.

[39] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi.– Toshkent: «Hilol-Nashr», 2017. – J. 2. – B. 234-235.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.